XALQ DEPUTATLARI SHAHRIXON TUMAN KENGASHI QARORI

171600, Andijon viloyati Shahrixon tumani Shox ko'cha 4-uy

2023 - yil 7 - avgust VI-37-36-1-28-K/23 Shahrixon tumani hokimligi

Shahrixon tuman mahalliy byudjetining 2023 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'larni yo'naltirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 27-, 126-moddalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24–moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahrixon tuman mahalliy byudjetining 2023 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan qo'shimcha mablag'lar 114204,0 ming so'mni tashkil etganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Tuman hokimligining "2023 yil 2-chorak yakuni bilan shakllangan qo'shimcha mablag'larni maqsadli va manzilli sarflanishi bo'yicha" taklifi maqullansin.

2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining 2023 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan ilovaga muvofiq mablag'lar ajratilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari(Razzaqov), tuman moliya bo'limi (Burxonov) va G'aznachilik bo'linmasi (Sharipov) bilan birgalikda ushbu qaror ilovasiga muvofiq ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda yo'naltirilishini hamda moliyalashtirilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (G’oziev) mazkur qarorni matbuotda e’lon qilishi tavsiya etilsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi raisi hamda tuman hokimining birinchi o’rinbosari zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **Х.В.Дадахонов**

Xalq deputatlari Shahrixon tuman
Kengashining
2023-yil 7-avgustdagi
VI-37-36-1-28-K/23-son qaroriga
1-ilova

Shahrixon tuman mahalliy byudjetining 2023 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'larni yo'naltirish hisobi

ming so'mda

№	Mablag' ajratilayotgan tashkilot nomi	Mablag' ajratish maqsadi	Mablag' miqdori	Mablag' ajratish uchun asos
1	Tuman hokimligi	"Ayollar daftari" jamg'armasiga	17131,0	PQ-5020, 05.03.2020 й.
2	Tuman hokimligi	"Yoshlar daftari" jamg'armasiga	17131,0	PQ-92, 19.01.2022 й.
3	Tuman hokimligi	"Temir daftar" jamg'armasiga	17131,0	VM 213-Ф, 22.04.2020 й.
4	Tuman hokimligi	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga	34261,0	PQ-5072, 13.04.2021 й.
5	Tuman hokimligi	Jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha xokim maslaxatchilari ish xaqi (saylov)	17130,0	
6	Tuman hokimligi	Bolalar sog'lomlashtrish va aholi salomatligini tiklashga ko'maklashish jamg'armasi	11420,0	PQ-427
	JAMI	**xxx**	**114204,0**	**xxx**